

**O'ZBEK SHEVALARINI TASNIF QILISH TAMOYILLARI**

Muxammadiyeva Madina Abdunazar qizi

Termiz davlat universteti 2-kurs talabasi

[*madinamuhammadiyeva21@gmail.com*](mailto:madinamuhammadiyeva21@gmail.com)

Muborak O'rozova O'ral qizi

Termiz davlat universiteti 2-kurs talabasi

[*Muborakorozova2005@gmail.com*](mailto:Muborakorozova2005@gmail.com)

Annotatsiya: *Mazkur maqolada o'zbek shevalarini tasnif qilish tamoyillari, ularning kelib chiqib rivojlanishi va o'rganilish tarixi haqida so'z boradi. Qolaversa, o'zbek shevalarini tansif qilishda o'zining ulkan hissasini qo'shgan buyuk o'zbek olimlari, jumladan, Ye.D. Polivanov, Borovkov kabi olimlarning qarluq, qipchoq va o'g'uz lahjalariga doir olib borgan tadqiqotlari xususida ham mulohazalar yuritilgan.*

Kalit *so'zlar:* *Til sistemikasi, sheva, lahja, dialekt, shevalar tasnifi, lingvisti klaster, metisatsiya, gibridizatsiya, umlaut, eronlashgan va eronlashmagan shevalar, chig'atoy lahjasi, o'g'uz lahjasi, turk-barlos lahjasi.*

Dialektologiya fan sifatida jonli xalq nutqiga qiziqish tufayli XVII asr oxirlarida Germaniyada shakllandi. Bu davrda Germaniyada xalq shevalaridan mahalliy so'zlar yig'ilgan va lug'atlar tuzilgan. Shevalarni ilmiy asosda o'rganish esa XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab o'rganila boshlangan.

O'zbek xalq shevalarini o'rganishga qiziqish va uning tasnif masalalari XIX asrning oxirlariga kelib ancha kengaya bordi. O'tgan asrning 20-30- yillarida esa bu ishlar rivojlanib, jonlangan. Bu sohada Ulug' Tursunov, G'ozi Olim Yunusov, Polivanov kabi yirik olimlarning xizmatlari katta bo'ldi.

Mashhur tilshunos olim V. Reshetov o'zining nomzodlik dissertatsiyasini o'zbek tilining Marg'ilon shevasiga va doktorlik dissertatsiyasini Toshkent viloyatining Qurama shevalariga bag'ishladi. U birinchilardan bo'lib o'zbek shevalar



tasnifiga oid materiallarni to'plagan va o'zbek shevashunosligi taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shgan. O'zbek shevalari 1920-1930- yillardan boshlab ilmiy asosda o'rganila boshlandi va shu asnoda uning dastlabki tasniflari paydo bo'ldi.

Tilshunoslikda "til sistematikasi" degan tushuncha bot. U to'rt a'zoli shkalani aks ettiradi: sheva, dialekt, lahja, til. Bunda til tarkibiga kiruvchi lahjalar, dialektlar, shevalarning muayyan tartibini belgilash lingvistik klaster deyiladi.

O'zbek shevalarini tasnif qilishda quyidagi qator tamoyillardan foydalaniladi:

- o'zbek shevalarida o'zbek tilidagi unli va undosh tovushlarning mavjudligi
- Ozbek dialektologiyasidan kurs materiallari. - Samarqand, SamDU, 54-55- betlar: Ozbek tilining g'arbiy Samarqand shevalari. - Toshkent, Fan, 5-13 betlar.
- o'zbek shevalarining singarmonizm va umlautni saqlash darajasi
- o'zbek shevalariga qardosh va qardosh bo'lmagan tillarning ta'siri
- tarixiy qatlamga oid leksik birliklar va o'zlashgan qatlamga oid so'zlarning mavjudligi
- so'zning fonetik va morfologik strukturasi va boshqalar.

O'zbek shevalari turkolog va dialektologlar tomonidan turlicha tasnif qilingan. Professor Zarubin o'zbek shevalarini 4 guruhga ajratgan. Xiva, Farg'ona, Toshkent va Samarqand-Buxoro shevalari. Zarubin bu tasnifida o'zbek shevalari orasida keng tarqlagan qipchoq shevalari va shimoliy o'zbek shevalari hisobga olinmay qolgan. Professor K. Yudaxin o'zbek shevalari tasnifining ikki variantini taqdim etadi: 1-variantda o'zbek shevalarining tojik tili bilan munosabati, 2-variantda shevalarning darajasiga ko'ra 4 guruhga ajratgan. Polivanov o'zbek shevalarining birinchi bo'lib ilmiy tasnifini yaratdi va asosan ikki narsaga e'tibor berdi:

1. Metisatsiya.
2. Gibridizatsiya.

Keyingi davr dialektologlari Polivanov o'zbek shevalarini tasnif qilishda 2 tamoyil: 1) metisatsiya (qardosh tillarning chatishuvi) va 2) gibridizatsiya (qardosh bo'lmagan tillarning aralashuvi) hisobga olgan holda tasnif qilgan degan fikrni ilgari



surganlar. Qolaversa, mazkur olim o'zbek shevalarini etnik jihatdan, ya'ni kelib chiqishiga qarab juda sinchiklab o'rgangan. O'zbek shevalarida tojik tilning ta'sirini hisobga olib, o'zbek shevalarini: eronlashgan va eronlashmagan shevalarga bo'ladi. Olim "eronlashish" nazariyasini ilgari surgan va mohiyatini tushuntirib bergan. U unli fonemalar sistemasining tasnifini berib eronlashmagan shevalarda vokalizm tarkibi to'qqizta, eronlashgan, jumladan Toshkent shevasida uchta unli fonema o'z xususiyatini yo'qotgan, degan xulosa chiqaradi.

Eronlashgan va eronlashmagan shevalar o'rtasida eronlashishning kuchsizlanishi, gibridizatsiya jarayonida turkiy elementlarning kuchlilanishiga ko'ra eronlashgan shevalarni 4 guruhga ajratdi:

I. Chig'atoy lahjasi.

- 1) Samarqand-Buxoro shevalari
- 2) Toshkent tipidagi shevalar (Toshkent va uning atrofidagi qishloq shevalari - Xonobod, Telov)
- 3) Qo'qon-Marg'ilon (Qo'qon, Marg'ilon shahar va qishloq shevalari)
- 4) Andijon shahar tipidagi shevalar.

II. O'g'uz lahjasi o'z ichiga ikki guruh shevani oladi. Bular:

- 1) janubiy Xorazm (Xiva, Yangi Urganch Shovot, G'azovot, Xonqa shevalari): bu guruhga Sho'raxon shevasi alohida bir tip sifatida kiritilgan.
- 2) Shimoliy o'g'uz guruh shevalari (Iqon-Janubiy Qozog'istondagi Qorabuloq shevalari): bu guruhga Forish tumanidagi Bag'dod shevasi alohida tip sifatida kiritilgan.

III. Qipchoq lahjasi quyidagi 7 tip shevani o'z ichiga oladi:

- 1) o'rta Xorazm (Gurlan, Shabboz) Shimoliy Xorazm (Qipchoq, qo'ng'iroq tumanlari shevalari)
- 2) "O"lovchi tip (qozoq-nayman, Farg'ona - qoraqalpoq shevalari)
- 3) Qurama shevalari (Ohangaron vodiysi shevalari)
- 4) shimoliy o'zbek shevalari (Turkistondagi So'zoq shevasi)
- 5) o'rta o'zbek (Qirq shevalari va janubiy o'zbek shevalari)
- 6) laqay shevalari va h.k
- 7) Afg'onistondagi qipchoq - o'zbek shevalari va boshqalar kiradi.



Professor G'ozī Olim Yunusov o'zbek shevalarini sheva vakillari orasida tushunilmaydigan leksik, fonetik, morfologik xususiyatlarini hisobga olib tasnif qildi. U o'zbek shevalarini uch lahjaga ajratdi: o'zbek, turk-barlos, Xiva- Urganch.

I. O'zbek-qipchoq lahjasi: bu lahjaga Ohangaron vodiysi, Mirzacho'l, Zarafshon atrofida yashovchi o'zbeklar kiradi. Bu lahjaning fonetik va morfologik xususiyatlari quyidagicha:

y-dj: yer-žer, yol-žol

q-g': aq-ayar, aq-ay, qulaq-qulay

k-g: yek-jegip, kok-kögi

p-b: top-tābi, qap -qabī

g, g-y: tegdi-tijdi, yegdi-ijdi sigdi-sijdi, yigin-žijin soz oxirida q, g tushib qoladi: sari, tari.

Jonalish kelishigi qoshimchasi: -ga, -qa, -gä, -kä, -a, -ä tarzida keladi:

koplik qoshimchasi: lar, -lär, -nar, när, -tar, tär, kabi.

Turk-barlos lahjasi. Bu lahjaga Toshkent, Qoqon, Namangan, Andijon shaharlarida va ularning atrofida yashovchi o'zbeklar kiritiladi. Bu lahjada jo'nalish kelishigi qo'shimchasi qattiq unlilar va jarangsiz undosh bilan tugasa -qa, jarangli bilan tugasa -ya, yumshoq ozak jarangsiz undosh bilan tugasa -gä tarzida qoshiladi.

Gozi Olim Yunusov bu lahjani 4 shevaga boladi:

1. Sayram-Chimkent shevasiga oid sozlar

2. Toshkent-Xovos shevasida tushum kelishigi -ti shaklida boladi. Hozirgi zamon davom feli: -vāt kevätti, āvätti.

3. Andijon shevasida tushum kelishigi

4. Namangan shevasida hozirgi zamon davom feli.

III. Xiva-Urganch lahjasi Xiva, Qarluq, Xonqa, Katda yashovchi ozbek shevalari kiradi. Jonalish kelishik qoshimchasi -ga, -ga, -a, ä kabi ishlatiladi. Kelasi zamon feli yasovchi affiksi -žaq, -žaq kabi korinishlarda boladi.

Umuman, ozbek sheva va dialektlarini tadqiq va tasnif qilishda K. Yudaxin, Gozi Olim, K. Borovkov kabi olimlarning buyuk xizmatlari bor. Bu olimlar rahbarligida mahalliy ozbek olimlari yetishib chiqdi. Ozbek shevalari akademik



Sh.Shoabdurahmanov, professor Mirzayev, F.Abdullayev va boshqa fan doktorlari bilan birga 50 ga yaqin fan nomzodlari, dotsentlar o'zbek shevalari bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlarini olib borgan va davom ettirmoqda. O'zbek dilektlari o'zbek shevalarining barcha masalalari bo'yicha nazariy muammolar: o'zbek shevalari fonologiyasi turkiy tillar bilan qiyosiy jihatdan organilishi o'zbek tilshunosligini yanada boyitishga, qolaversa, o'zbek shevalarini o'rganishga bolgan qiziqishni yanada orttiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Fayziyeva X. O'zbek dilektologiyasi. Termiz: Kitob nashr, 2024.
2. Ashirboyev S. O'zbek dialektologiyasi. Toshkent: Nodirabegim, 2020.
3. Ashirboyev S. O'zbek dialektologiyasi. Toshkent: Navroz, 2016.
4. Ernazarov T. Karimjonova A. O'zbek dialektologiyasi. Toshkent: 2012. 192-bet.
5. Reshetov V. Shoabdurahmanov Sh. O'zbek dialektologiyasi, Toshkent, O'qituvchi, 1978
6. <https://oefen.uz>
7. <https://uz.wikipedia.org>.